BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI ONA TILI DARSLARI ORQALI MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISH

https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.005

Iroda Isroilova
Olmazor tumani 46-maktabning
Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning intellektual va tafakkuriy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Aynan shu davrda bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va tahliliy tafakkur asoslari shakllanadi. Ona tili darslari esa o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun interaktiv mashqlar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Shu bois, ona tili darslarida mantiqiy topshiriqlarni tizimli qo‘llash masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini ona tili darslari orqali rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, taqqoslash va tahlil, mantiqiy topshiriqlar asosida mashq ishlab chiqish, tajriba-sinov mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda o‘quvchilarning bilim va tafakkur darajasini baholash metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatish orqali o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari va topshiriqlarni bajarish jarayoni o‘rganildi. Taqqoslash va tahlil metodlari yordamida an’anaviy mashqlar bilan mantiqiy topshiriqlar asosidagi mashqlar natijalari solishtirildi. Tadqiqot doirasida ona tili faniga mos mantiqiy mashqlar tizimi ishlab chiqilib, sinf darslarida amaliyotga tatbiq etildi. Mashqlar so‘zlarni guruhlarga ajratish, so‘z turkumlarini aniqlash, tovushlarni tasniflash kabi faoliyatlarni qamrab oldi. Topshiriqlar murakkablik darajasiga ko‘ra oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilib, 1–4-sinflar kesimida bosqichma-bosqich qo‘llandi. O‘quvchilarning bilim va mantiqiy tafakkur darajasi diagnostik topshiriqlar va nazorat ishlari orqali baholandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ona tili darslarida mantiqiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash faolligini sezilarli darajada oshirdi. O‘quvchilar so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishni tezroq anglay boshladilar, topshiriqlarni mustaqil bajarishga bo‘lgan qiziqishlari kuchaydi. Ayniqsa, so‘zlarni guruhlarga ajratish va tasniflashga doir mashqlar ularning tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Muhokama. “Bolaning rivojlanishida eng asosiy davr – bu boshlang‘ich sinf davridir.” Aynan mana shu davrda bolalarda mustaqil mantiqiy fikrlash malakasi shakllanadi. Bunda darslarda, xususan, ona tili darslarida o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan metodlarning o‘rni, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ma’lumki, odatda bolaning maktabga tayyorgarligini tekshirish maqsadida bir nechta mantiqiy topshiriq turlaridan foydalaniladi va natijalar asosida bolalarning mustaqil mantiqiy fikrlash qobilyati baholanadi. Bunday topshiriqlar bolalar tomonidan katta qiziqish bilan bajarilishini nazarda tutgan holda, ularni boyitib, ona tili fani xususiyatlariga muvofiqlashtirib dars jarayoniga tadbiq etsak, yanada ko‘proq ijobiy natijalarga erishishimiz tabiiy. Chunki qiziqish bilan bajarilgan topshiriq xotirada obrazli tarzda o‘rnashadi va uzoq muddatga saqlanadi. Masalan, quyidagi topshiriq turlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib, ularni boyitib boshlangich sinfning ona tili darslarida qo‘llash mumkin.

1)*Olma, gilos, sabzi, o‘rik, kartoshka* so‘zlarini guruhlarga bo‘lish mumkinmi? Qanday? Yuqoridagi topshiriqni bajarish jarayonida bolalarning mantiqiy fikrlash qobilyati rivojlanadi. Chunki topshiriqda so‘zlarni qanday guruhlarga bo‘lish mumkinligi aytilmagan. Buni bolaning o‘zi o‘ylab topadi. Ona tili darslarida ushbu topshiriq turini quyidagicha joriy etish mumkin.

1-sinfda: *yugurmoq, qalam, kitob, suzmoq, o‘qimoq, daftar* so‘zlarni (narsaning nomini bildirgan va harakatni bildirgan so‘zlar) yoki *i, m, o, z, k, u, y, e, x* tovushlarini (unli va undosh tovushlar) guruhlarga bo‘lib bering, kabi nisbatan sodda ko‘rinishdagi va keyinroq *eshik, yaxshi, chiroyli, besh, gapirmoq, yetti, so‘ramoq, gul, yoqimli* so‘zlarini necha guruhga (shaxs va narsaning nomini, belgisini, miqdorini, harakatini bildirgan so‘zlar) bo‘lish mumkin? Qanday? kabi biroz murakkab ko‘rinishdagi mashq turi tarzida;

2-sinfda: darslikdagi ma’lumotlardan kelib chiqib *b, t, d, p, k, g, q, y, h, x, f, v* tovushlarini qanday guruhlarga (jarangli va jarangsiz undoshlar) bo‘lishimiz mumkin, singari;

3-sinfda: *nok, kulmoq, odobli, aqlli, oltmish, ekmoq, uchmoq, daraxt, ikki* so‘zlarini necha guruhga (1-sinfdan farqli o‘laroq, endilikda bolalar so‘zlarni ot, sifat, son va fe’l kabi so‘z turkumlariga bo‘lib chiqadilar) bo‘lish mumkin? Qanday? ko‘rinishida;

4-sinfda: *ekin, bodom, chiroyli, dehqon, suvsiz, bilimdon, yashil* so‘zlarini guruhlarga bo‘lib bering, kabi.

Bunda ayrim o‘quvchilar so‘zlarni oddiygina ot va sifat so‘z turkumlariga bo‘lib chiqishi mumkin, ayrimlari esa, shu bilan bir qatorda, sodda va yasama so‘zlar guruhiga yoki avval so‘z turkumlariga bo‘lib so‘ng sodda va yasama ot hamda sodda va yasama sifat guruhlariga ham bo‘lib chiqishi mumkin.

Ot		Sifat	
sodda	yasama	sodda	yasama
bodom	*ekin*	*yashil*	*chiroyli*

Guruhlar nomi aytilib, berilgan so‘zlarni shu guruhlarga bo‘lib chiqishga doir (masalan, *yugurmoq, qalam, kitob, suzmoq, o‘qimoq, daftar* so‘zlarni narsaning nomini bildirgan va harakatni bildirgan so‘zlar guruhiga bo‘lib chiqing, topshirig‘i. Bu xuddi meva va sabzavot nomlari berilib, olma mevami yoki sabzavot, degan kabi oson) mashqlardan ko‘ra yuqoridagi kabi guruhlarga bo‘lish o‘quvchining o‘ziga vazifa sifatida beriladigan topshiriqlar bolalarni mantiqiy fikrlashga ko‘proq majbur qiladi. Topshiriqni yaxshi tushunib olgan o‘quvchi 3-4-sinfga kelib so‘zlar orasida turli aloqadorlikni aniqlay boshlaydi. Masalan, berilgan ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni birlik yoki

ko‘pligiga, kelishigiga, so‘rog‘iga qarab bir necha marta guruhlarga bo‘lish mumkinligini tushuna boshlaydilar.

2)

1-sinfda:



2-sinfda:



3-sinfda:



4-sinfda:





kabi topshiriqlardan bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida ona tili darslarida foydalanish mumkin. Bu kabi mashq turlarini bolalar oddiy (yozma) mashq turlaridan ko'ra ko'proq qiziqish bilan bajaradilar, shuningdek, bu ko'rinishdagi topshiriqlar o'quvchilarning obrazli tafakkurini rivojlantirishda qo'l keladi. Topshiriq turidan o'qituvchi xohishiga ko'ra darsning istalgan qismida foydalanish mumkin. O'quvchilar eshitib o'rganganlarining 10% ni eslab qoladilar. Ushbu topshiriq turidan foydalanuvchi o'qituvchi esa o'quvchining nafaqat eshitib o'zlashtirish qobilyatidan, balki ko'z xotirasidan ham samarali foydalangan bo'ladi. O'qituvchi tomonidan tushuntirilgan qoidalarning chizmalardagi aksini ko'rgan o'quvchi eshitish jarayonida qoidalarning tasavvurida gavdalangan ko'rinishi bilan topshiriqdagi ko'rinishini taqqoslaydi va xatolariga o'zi (mustaqil) tuzatishlar kiritadi.

Xulosa. Bugungi davr o'quvchisini o'qituvchining dars davomida qo'llagan bir yoki ikki usul va metodlari to'la qoniqtirmaydi. O'qituvchi xilma xil usul va metodlar ustida izlanib, ulardan o'quvchi uchun yangi va notanish hisoblangan eng optimal varianlarini dars davomida qo'llasagina o'quvchilarning nisbatan o'z kuchidan to'laroq foydalanishiga erishgan bo'ladi. Yuqoridagi topshiriq turlari esa o'qituvchiga ana shu jarayonni tashkillashtirishda o'ziga xos ko'mak vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. T.G'afforova va boshqalar. Ona tili (1-sinf uchun darslik). "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2010.
2. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili (2-sinf uchun darslik). "Cho'lpon", 2005.
3. S.Fuzailov, M. Xudoyberganova. Ona tili (3-sinf uchun darslik). "O'qituvchi", 2008.
4. R.Ikromova va boshqalar. Ona tili (4-sinf uchun darslik). "O'qituvchi", 2007.
5. Abdullayev O. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. — Toshkent: "Fan", 2015.

6. Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012.

7. Karimova N. O‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari. — Toshkent: “Innovatsiya”, 2018.

8. Nurmatova G. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish. — Toshkent: “Ma’naviyat”, 2016.